

**Do'stlik muqaddas tuyg'u  
Egamberdiyeva Gulsanam O'tkir qizi**

Termiz davlat universiteti  
Xorijiy filalogiya fakulteti  
Filalogiya va tillarni o'qitish  
Fransuz tili yo'nalishi 1-kurs  
Talabasi

Do'stlik bu- so'nmas bebaho olov . Bu rishtani inson axloqining bebaho go'zalligi ijobiy fazilatlar gavhari.Insondagi barcha go'zal fazilatlar bir marvarid shodasi bo'lsa ,uning dur-gavhari chin insoniy muhabbatga asoslanagan do'stlik tufayli xonadonimiz obod ,dunyoda tinchlik va dasturxonimizda to'kinlik hukumron. Shuning uchun ham dono kishilar hamma jamiyatda hamdo'stlikni ulug'lab, qadirlab kelganlar va odamlarni do'st bo'lib yashashga ko'proq shu rishtani ortirishga undaydilar.Bugungi kunga kelib chin do'stni toppish juda qiyin . og'ir kuningda ham yaxshi kunungda ham yonida turushlik aytiladi. Bugungi kundagi chin do'stim bu mening onam.Men onam bilan bemalol dardlasha olaman.Sirlarimni ,ichimdagi bor gaplarimni qo'rqmasdan bemalol ayta olaman.Mening sirdoshim yelkadoshim , hamdardim bu mening onam .Onamdan boshqa hechkinga ishonmayman .Hayotning sinovi chin dugonamning xiyonati meni onamga bo'lgan ishonchimni yanada mustahkamladi. Chin do'st bu-mening bor sirlarimni ayta oladigan bir yarimim desam ham bo'ladi . Mana bir hayotiy real bo'lgan voqeani aytib o'tsam sizga bu voqea shunday boshlangan edi .Maktab paytlari edi.mening bir dugonam bor edi. Unga shu qadar ishonar edimki unga borimni berishga tayyor edim.U har qanday vaziyatga yomon ahvolga tushib qolganda men uni olib chiqa bilar edim.Lekin umenga uni yonida turolganchalik tura olmadi.Men uning yaxshi va yomon kunlarida yonida bo'ldim ,lekin u mening yonimda tura olmadi. U menga nisbatan xiyonat qildi. Mening sirlarimni boshqa birovga aytdi. Men unga juda ishongandim ,lekin men unga qilgan yaxshiliklarimni bilmasdan ketib qoldi. U menga qilgan har xil ishlaridan va aytgan gaplaridan juda xafa bo'ldim . Lekin men unga qilgan munosabatim va yaxshiliklarimga un juda arzirdi.Men u dugonamni juda yaxshi ko'rar edim.Boshqa dugonalarimga nisbatan unga boshqacha nazar bilan qarar edim. U menga qilgan yomonliklari va xiyonatiga arziyas edim. Shunday qilib boshimdan o'tgan voqeani ham qog'ozga tushdim. Men bu voqeadan o'zimga saboq oldim. O'z onamdan boshqaga ishonmaslikni o'rgandim .Bu hodisa menga kata dars berdi desam

ham bo'ladi. Ba'zida soni kabi bo'lsa ham , sifatli do'stlarim bor deb maqtanib yuramiz. Aslida unday emas. Ha ular yaxshi-yomon kunlarimizda bo'lishga harakat qilishadi . Hatto o'z manfaatini ustun ko'radiganlar ham bor yo'q emas . Balki ularning yaxshiliklariga munosib javob qaytara olmasangiz ; chin do'st deb o'ylagan kishingiz munosabati ozgina o'zgarganiga guvuh bo'lasiz. Asta sekin unda o'zingizga yoqmaydigan holatlarni ilg'ay boshlaysiz . To'g'ri u ham inson , lekin doim yaxshi bo'lish imkoni hech birimizda yo'q . Ammo bir narsani tan olmoq lozimki chin o'rtoqning o'zi yo'q . yagona do'st bu o'z onamiz . U zot har qanday holatda sizga yaxshilik qiladi . Holingizdan habar oladi . Uni xursand qilsangiz ham norozi qilsangiz ham sizga yordamga kelaveradi. Ona bilan bolaning orasidagi farq shu . Do'stlik va sadoqat tushunchalari bi-biriga ma'nodosh va bir- biriga bog'liq bo'lgan so'zlardir. To'g'rirog'i sadoqat bu – do'stlik degani , do'stlik esa sadoqat demakdir. Zero arab tilidan kirib kelgan sadoqat so'zi do'stlik ma'nosini ifoda qiladi. Chunki haqiqiy do'st aldamaydi yolg'on gapirmaydi birovni haqqiga hiyonat qilmaydi, yolg'on tuhmat tashlamaydi sadoqatli , vafoli bo'ladi. Sodiq do'st degan so'z shundan kelib chiqqan hisoblanadi. Sadoqat o'rtoqlik kishi uchun hos nasib qilishi mumkin bo'lgan ne'matlarning eng yaxshilaridan biridir, deb ham aytsak xato bo'lmaydi . Bu ne'matni faqat haqiqiy do'sti borlar tushuna oladi . Do'stni qadrlay oladigan har doim yonida turadigan odami do'st degan nomga loyiqdir. Bu ne'matni faqat haqiqiy do'sti bor odamgina to'laqonli his qila oladi. Sadoqat – do'stlik „sidq“ so'zidan olingan bo'lib „sidq“ so'zidan olingan bo'lib rostgoylik , samimiyat va vafodorlikni anglatadi. Zero do'stga nisbatan rostgo'y nafaqat do'stga barcha insonlarga samimiy vafodor bo'lish daektor. Do'stlikni yana shunday bir narsaga o'xshatish mumkinki do'stlik shunday bir daraxt ki, urug'i ni vafoga shohlarini umidga , yaproqlarini esa kuz kelib to'kilguncha sadoqatga o'xshatish mumkin . Do'stlik bir shaharki kaliti vafo aholisi esa vafodorlar. Do'stlik yor –u birodarlarsiz inson yashay olmaydigan kuch- quvvat. Do'stning hiyonati juda og'ir va alamli botadi . Uni qalbdan butkul o'chirib yuborish juda qiyin bo'ladi. Do'st tomonidan yetkazilgan kichik aziyat ham aslida kichik bo'lib ko'ringani bilan aslida qalbga katta jarohat qoldiradi . Payg'ambarimiz Muhammad mustafo sallohu alyhi vassallam hadislaridan birida takidlab o'tadilarki „Bir – biringizga , hayr – ehsonli , mehr – muruvvatli bo'lib , qo'l berib so'rashib yuringlar , shunda dillaringizdagi g'ashlik ketadi “ - deganlar . Bu ikki rishta insonning kuchiga kuch qudratiga qudrat qo'shadi , kishini baxtli qiladigan eng muhim omillardan hayotini bezaydi. Xalqimiz o'rtaida do'stlik munosabatlariga bag'ishlab juda ko'plab hikmatli so'zlar yaratilganki , ular

orqali do'stlikning kishi hayotida o'rnini ifoda etib beradi.,,Chin do'st chin yurakdan so'zlaydi ‘, ,,,Qalin o'rtoq- qarindoshdan ortiq ‘. Bu pirma'no hikmatli so'zlarda el – yurtning bir umirlik orzu- umidlari yashaydi . Mazkur hikmatli so'zlarda do'stlik va o'rtoqlikga xos bo'lgan eng yaxshi hislatlar ifodalanganiki biz o'z hayotimizda ularga har qadamda duch kelib turamiz . Birodarlikning eng yaxshi hislatlaridan bir kishilarga mehirlash – shavqatli bo'lishni anglatadi . Birodarlikga xos bo'lgan yana bir xislat bu o'zoro yordam . Biz o'qishda , mehnatda , jamoat ishlarida o'rtoqlarimizdan yordamimizni ayamasligimiz lozim . Birdamlik rishtalarining bog'lanishi va mustahkamlanishini ta'minlovchi birmuncha xislatalar bor. Jumladan rostgo'ylik ,bir – birini o'zaro hurmat qilish va sirdosh bo'lish o'rtoqlariga doimo g'amho'r bo'lish kabilarni o'z vaqtida amalga oshirib borsak , bizning o'rtoqlarimiz ortib boradi . Haqiqiy birodarlik darajasiga ko'tarila oladi ,shu bilan birga birodarlikning oliy shakli hisoblanadi . Chunki do'stlik avvalo o'rtoqlikdan boshlanadi. Kishi o'z o'rtoqlaridan birini boshqalardan ortiqroq sevadi. Uni boshqalardan ko'proq hurmat qiladi , unga nisbatan o'z moyilligini amalda ko'rsatishga tirishadi. Ikkinchi tomon ham bu hurmatga hurmat bilan javob berishi ayni muddao bo'ladi . Do'stlar doimo bir –birlaridan maslahat so'raydilar , fikirlarini inobatga olishadi , bir –birlariga muntazam yordamlashib turadilar moddiy va ma'naviy jihatdan bir –birlarini qo'llab quvvatlaydilar . shunday qilib avvalgi oddiy o'rtoqlar keyinchalik yaqin ya'ni chin do'st bo'lishadi . Do'stlikni tor ma'noda ya'ni ikki kishi orasidagi aloqadagina iborat deb tushunmaslik darkor . Birodarlik tushunchasi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib million – million kishilarning ahil yashashi , iqtisodiy , siyosiy va madaniy sohalarda hamjihatligini bildiradi. Hozir ham bundan avval ham yer kurrasi xalqlari orasida do'stlik jahon ahamiyatiga ega bo'lgan bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Yuqorida aytib o'tkanimizdek do'stlik ikki kishi orasida boshlanib kengayib boradi va ijtimoiy tus oladi . Do'st orttirish hamma yoshda ham zarur lekin yoshlikda boshlangan do'stlikning ildizi juda chuqur va mustahkam bo'ladi. Ota – bobolarimiz do'stlikni birodarlikni , yuqori darajada qadirlashgan . Birodari yo'q odamning qurgan daraxtiga , jisman mavjud bo'lsa ham qalbini o'lik murdaga o'xshatishgan . Do'sti ko'p odamni hurmat qilishgan . Birodar orttirish uchun mehnat qilish birovlarining yukini ko'tarib mushkulini oson qilish kerakligini uqtirishgan . Ahil do'stlarni hechkim yengib bilmaydi . Do'stlik ajoyib rishta . Qandaydir e' tiborsizlik bemehirsizlik ham do'st bilinuvchi kishidan sodir bo'lishi ko'ngilga og'ir botar ekan . Inson o'ziga yaqin bo'lmagan do'st hisoblanmagan

odamlardan yetadigan aziyatlarga yomonliklarga ularga katta va og'ir bo'lmasin bardosh berishi mumkin . Ammo do'st deb bilgan insondan sodir bo'ladigan kichik bir yomonlikni o'ziga qattiq olar ekan inson . Do'stni borida qadirlashimiz har doim birga vaqt o'tkazishimiz kerak . Albatta har bir insonning ham yelkadoshi ,sirdoshi hamdo'sti bo'lishi kerak ,bo'lmasa odam dunyodan bezor bolib , hechnimaga qiziqmay atrofdan ajralib qolar ekan Vaqti kelib shu sizning do'stingizni boride qadirlab qadriga yetib ardoqlab yurishimiz lozim ,va bunga hamma rioya qilishi kerak bo'ladi. Do'stlik qudratli kuch . Insonni do'sti bor ekan – uni doim kuchli bo'ladi , va qudrati ham .Agar do'stlik yaxshilik uchun qurilgan bo'lsa bu do'stlik qudratli kuchga aylanadi. Agar yomon niyatda bo'lsa buni aksi bo'ladi . Hamma insonni albatta bir do'sti boladi hoh u o'g'il bolami hoh u qiz bola bo'ladimi.Men ham bu do'stlikka ishonaman va do'slik eng katta kuch deb bilaman . Lekin afsuski oramizda do'stni arzimagan pulga sotib ketayotganalar bor , bu insonni ko'rsa albatta odamning qalbi og'riydi . Biz esa hayotimizda yaxshin do'st izlashga harakat qilishimiz kerak , va u do'stlikni qudratli kuchga aylantirishimiz lozim. Do'stlik ezgu xulq do'stlikni , yomon xulq dushmanlikni keltiradi . Do'stlik - inson axloqining bebaho go'zalligi , ijobiy fazilatalar gavhari . Haqiqiy do'st biror o'tirishga kelib qolsangiz darrov sizga joy beradi. Ko'rishganingizda birinchi bo'lib salom beradi. Mabodo ishingiz tushsa quvonch va shodlik bilan hojatingizni ravo qilish yo'lida yelib – yuguradi. U o'ziga yaxshi ko'rgan narsani sizga ham yaxshi ko'radi. Haqiqiy do'st biror moddiy yoki ma'naviy manfaatini ko'zlamagan holda sizni alloh uchun yaxshi ko'radi. U hayotingiz to'kin sochinligida ham , mashaqqatli paytida ham, shodlikda ham, qayg'uda ham tinchligida ham, yoningizda turadi. Haqiqiy do'st aybingizni ko'rsa ham tanholikda nasihat qiladi. Yaxshi ishingizni ustidan chiqsa shijoatlantiradi. Ezgu ishlarni amalga oshirishingizda ko'makchi bo'ladi. Chin do'st siz haqingizda doimo yaxshi fikirda bo'ladi . „Yomg'irdan soyabon bo'lmagan do'st do'st emas”. U shunchaki, tanish – bilishlardan biridir . Haqiqiy do'st shunday kishiki , u bilan birga bo'lsangiz , xuddi yolg'iz holda bo'lganingizdek o'zingizni betakalluf tutasiz . U qaysidir kamchilingiz tufayli sizdan yuz o'girib ketmaydi.Dinimiz do'stlik dini . Unda xudbinlik qoralanadi. Insonlarni bir –biriga bolgan ishonchga undaydi . Ezgu ishlarga undaydi. Shunday qilib bir –biriga bo'lgan hurmatni o'rgatadi, va bir- birini qo'llab quvvatlashga undaydi.Men shu bo'lib o'tganlardan shu xulosaga keldimki do'stni qilgan mehnatiga har bir muomilasiga har bir hatti harakatiga e'tibor bilan va hurmatta bo'lishimiz lozim . O'zimizni chin do'stimizga nisbatan xiyonat qilmaslikni va har doim

yonida bo'lishni o'rgandim .Qo'lidan kelgancha yordam berishni o'rgandim va har qanday vaziyatda uni qo'llab quvvatlashni o'rgandim .Men shu vaziyatdan bo'lib o'tgan voqealardan shu xulosaga va yechimga keldim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati;**

1. Naim Karimov „Do'stlik daraxtining yashil barglari”.
2. „Jahon adabiyoti” jurnali 2009- yil.
3. Tumanboy Mo'ldag'aliyev „O'zbekim –o'z og'am”.
4. Mirtemirning „she'rlar” kitobi.
5. G'ofur G'ulomning „Ulug' yer “ kitobi.